

MUHAMMAD RIZO OGAHİY G'AZALLARIDA BADIY TASVIR VOSITALARI

Sevara Sodiqova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18693323>

Annotatsiya: XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotida serqirra ijodkor sifatida tanilgan Muhammad Rizo Ogahiy g'azallari badiiy tafakkur va poetik mahoratning yuksak namunasi hisoblanadi. Mazkur maqolada shoirning "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") nomli devonidan tanlab olingan g'azal baytlari asosida badiiy tasvir vositalarining qo'llanish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot davomida istiora, tashbih, takrir va tazod kabi she'riy san'atlarning g'azal mazmunini boyitishdagi o'rni ochib berilib, ular orqali ifodalangan ramziy va estetik ma'nolar yoritiladi. Tahlillar Ogahiy g'azallarining mumtoz she'riyat taraqqiyotidagi ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mumtoz she'riyat, badiiy tasvir, istiora, tazod, tashbih, takrir.

Annotation: Muhammad Rizo Agahi, one of the prominent representatives of 19th-century Uzbek classical literature, is distinguished by his rich artistic thinking and high poetic mastery. This article provides a scholarly analysis of the use of artistic imagery based on selected couplets from the poet's divan "Ta'viz ul-oshikin" ("Amulet of Lovers"). The study examines the role of poetic devices such as metaphor, simile, repetition, and antithesis in enriching the meaning of the ghazals and reveals the symbolic and aesthetic meanings expressed through them. The analysis contributes to highlighting the significance of Agahi's ghazals in the development of classical poetry.

Keywords: classical poetry, artistic imagery, metaphor, antithesis, simile, repetition.

Аннотация: Мухаммад Риза Агахи, один из выдающихся представителей узбекской классической литературы XIX века, занимает особое место благодаря богатству художественного мышления и высокому поэтическому мастерству. В данной статье на основе отобранных бейтов из дивана поэта «Та'виз ул-ошикин» («Талисман влюблённых») проводится научный анализ особенностей использования средств художественной выразительности. В ходе исследования раскрывается роль таких поэтических приёмов, как метафора, сравнение, повтор и антитеза, в обогащении содержания газелей, а также освещаются их символические и эстетические значения. Представленные выводы способствуют обоснованию значения газелей Агахи в развитии классической поэзии.

Ключевые слова: классическая поэзия, художественный образ, метафора, антитеза, сравнение, повтор.

Kirish. Mumtoz o'zbek adabiyoti tarixida Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy yirik va serqirra ijodkor sifatida alohida o'rin egallaydi. U o'z davrining yetuk shoiri bo'lish bilan birga, tarixchi va tarjimon sifatida ham salmoqli adabiy meros qoldirgan. Ogahiy ijodi hajman kengligi, mavzu doirasining rang-barangligi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zidan avvalgi o'zbek adabiyotiga baho berar ekan, Alisher Navoiyni eng "ko'p va xub" she'r ijod qilgan shoir sifatida e'tirof etgan. Ushbu

mezon asosida Boburdan keyingi davr ijodkorlari merosiga nazar tashlansa, mazkur ikki jihat — sermahsullik va badiiy yetuklikni o'zida uyg'unlashtirgan shoir sifatida, avvalo, Muhammad Rizo Ogahiy nomi tilga olinadi. Uning qoldirgan ijodiy merosi miqyosi, milliy adabiyot va madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, tarixnavislik va tarjimonlik sohalaridagi

xizmatlari, shuningdek, yuksak badiiy didi va soʻz sanʼatidagi mahorati Ogahiyning Alisher Navoiydan keyingi eng salmoqli ijodkorlardan biri sifatida baholashga asos boʻladi.

Ogahiy xalq orasida koʻproq lirik shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti – „**Taʼviz ul-oshiqin**“ („**Oshiqlar tumori**“, 1872) bizgacha toʻla yetib kelgan. Devon anʼanaviy tartibda tuzilgan, 470 gʻazal, 3 mustazod, 89 muhammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarjeʼband, 7 qitʼa, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri taviil, 1 munojot, 1 oshiq va maʼshuq savol-javobi, 20 taʼrix, 19 qasida – jami 18000 misradan iborat. Devonga „Ashʼori forsiy“ nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra sheʼri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundariyasi markazida ishq mavzusi turadi.¹

1 <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ogahiy>

Ogahiy ijodi mavzu jihatidan rang-barang boʻlib, shoir qalamiga mansub asarlarda turli masalalar yoritilgan. Shunga qaramay, u qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishq tushunchasi uning sheʼriy tafakkurida markaziy oʻrin tutadi. Ogahiy ijodida ishq nafaqat hissiy kechinma, balki gʻoyani ochib beruvchi muhim badiiy tayanch sifatida namoyon boʻladi. Shoir sheʼriyatida ishq iymon, eʼtiqod, vatanparvarlik va aql-zakovat bilan uzviy bogʻlanib, lirik qahramonning ruhiy holati, qarashlari hamda hayotga munosabatini belgilovchi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Asosiy qism.

Ogahiy gʻazallaridagi ayrim baytlarni tahlil etish orqali shoirning uslubiy xususiyatlarini aniqlash mumkin:

Jomi Jamgʻa iltifotim boʻlmasa yoʻq aybkim,

Kosai bazmi visoli sogʻari Jamdur mango.²

2 Muhammad Rizo Erniyozbek oʻgʻli Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. I jild. T.; Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1971, 54-bet.

Ushbu misrada shoir oʻzining Jamga boʻlgan eʼtiborini va mehrini ifodalaydi. Misrada ishlatilgan sanʼat – **istiora**. Istiora arabcha soʻz boʻlib, *“biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq”* degan maʼnoni ifodalab, adabiy asarda soʻzni oʻz maʼnodan bosha bir maʼnoda, aniqrogʻi uni haqiqiy maʼnosida emas, balki majoziy bir maʼnoda qoʻllash sanʼati sanaladi.³

3 Anvar Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati.-T.:Sharq, 1998.-53b. Masalan, qalbning tetiklanishi va hayotning jonlanishi kosadagi sharbat orqali tasvirlangan: visol (yuzlashuv) shoirning ichki dunyosini boyitadi, shaxsiy hislarini jonli qiladi. Shu tariqa, bayt Jamga boʻlgan mehr, samimiylilik va ruhiy tetiklikni chiroyli tarzda yetkazadi, lirizm va nafislik bilan boyitilgan.

Ul oy boshida tobon gavharmu ekan oyo,

Xurshid uza yo raxshon axtarmu ekan oyo.⁴

4 Muhammad Rizo Erniyozbek oʻgʻli Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. I jild. T.; Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1971, 63-bet.

Ushbu baytda shoir **tashbih** sanʼatidan mahorat bilan foydalanadi. Yorning chehrasi oy va gavhar bilan qiyoslanib, uning beqiyos goʻzalligi va nurafshonligi taʼkidlanadi. Bu qiyos yor

husnini oddiy tasvirdan chiqarib, ilohiy va yuksak darajaga koʻtaradi. Ikkinchi misrada yor nuri quyosh bilan taqqoslanib, uning atrofga hayot baxsh etuvchi, qalblarni yorituvchi qudrati ochiladi. Aynan tashbih sanʼati orqali shoir yorning nafaqat tashqi husnini, balki ichki maʼnaviy nurini ham oʻquvchiga his qildiradi, baytga lirizm va estetik goʻzallik bagʻishlaydi.

Shukrini naylab qilurmankim, menga har dam ishi

Yo karamdur, yo muruvvat, yo inoyat, yo vafo.5

5 Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. I jild. T.; G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971, 70-bet.

Ushbu baytda shoir **takrir va sanab o'tish san'atidan (ta'did)** samarali foydalanadi. Ikkinchi misrada ketma-ket keltirilgan “karam”, “muruvvat”, “inoyat”, “vafo” so'zlari orqali yorning yuksak axloqiy fazilatlarini birma-bir sanab o'tiladi va bu usul bayt mazmunini kuchaytiradi. Birinchi misrada shoir shukronasini bildirar ekan, har dam unga qilinayotgan ezguliklarning uzluksizligini ta'kidlaydi. Aynan ta'did san'ati orqali minnatdorlik tuyg'usi yanada ta'sirli ifodalanadi, yor obrazi esa komil va saxovatli sifatlar bilan boyitiladi.

Sening bila gar esam bog' erur manga do'zax,

Valek do'zax o'lur sandin oyru bog' mango.6

6 Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. I jild. T.; G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971, 72-bet.

Ushbu baytda shoir **tazod (qarama-qarshilik)** san'atidan kuchli foydalanadi. Jannat va do'zax kabi bir-biriga mutlaqo zid tushunchalar orqali shoirning ichki kechinmalari ochiladi: yor bilan birga bo'lish — hatto bog' do'zaxga aylansa ham — shoir uchun azob emas, aksincha baxt sifatida talqin qilinadi. Aksincha, yordan ayriliq holatida bog' ham do'zaxdek ko'rinadi. Aynan tazod san'ati orqali shoir muhabbatning qudratini, yor bor joyning jannatga, yorsiz makonning esa do'zaxga aylanishini ta'sirli va chuqur ifodalaydi. Bu qarama-qarshi tasvirlar baytga kuchli hissiylik, dramatism va badiiy ta'sir bag'ishlaydi.

Xulosa. Muhammad Rizo Ogahiy g'azallari o'zida chuqur falsafiy, ramziy va estetik ma'nolarni mujassam etgan bebaho adabiy meros hisoblanadi. Shoir g'azallarida qo'llangan istiora, tashbih, tazod, takrir kabi badiiy san'atlar mazmunning ta'sirchanligini oshirib, poetik ifodaning badiiy mukammalligini ta'minlaydi. Ushbu san'atlar orqali Ogahiy insoniy kechinmalar, ishqiy tuyg'ular hamda hayotiy mushohadalarni sodda, ravon va ta'sirli shaklda ifodalashga erishgan. Mazkur tahlillar shoir ijodining o'zbek mumtoz she'riyati taraqqiyotidagi muhim o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. I jild. T.; G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.
2. Anvar Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati.-T.:Sharq, 1998.-53b.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ogahiy>